



ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATI

Fayzullayeva Diyora Arslonbek qizi

Erkin tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21884951>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 06-avgust 2026 yil

Ma'qullandi: 08-avgust 2026 yil

Nashr qilindi: 11-avgust 2026 yil

KEY WORDS

Najmiddin Ermatov, she'riyat, novatarlik, sintezlash, ramz, an'anaviylik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek sh'riyatida o'z o'rnini tooib borayotgan, yosh va umidli shoirlar Suhrob Ziyo hamda Najmiddin Ermatovlarning she'riy to'plamlaridagi ayrim she'rlar tahlilga tortildi. Ularning g'oyaviy va badiiy xususiyatlari o'rganildi. Ijodkorlarning Shoirlarning ijodiy izlanishlari, tasvirdagi yangiliklarini, so'z qo'llash va badiiy mahoratlarini tahlillar orqali ochib berishga harakat qilindi.

Odatda davr almashinuvi adabiyotning ham yangilanishiga sabab bo'ladi. Istiqloлга erishganimizdan so'ng ijod ahli shuurida ham bir qalqish yuz berdi. Erkin ijod qilish imkoni paydo bo'ldi, adabiyotimiz yangi oqimlar bilan boyidi. Bugunga kelib yangi o'zbek adabiyoti o'z oqimiga, o'zaniga tushib bormoqda. Mustaqillikdan keyingi o'zbek adabiyotining xarakterli jihatlaridan biri janrlar, turlar, oqimlar o'rtasidagi chegaralarning yuvilib borayotganligidir. Xususan, bugungi shoirlarimizni ijodiga ham to'laligicha madernistik yohud an'anviy ruhda deb baho berib bo'lmaydi. Borgan sari barchasi aralashib, sintezlashib bormoqda. Buni Najmiddin Ermatov, Suhrob Ziyo kabi yosh shoirlarimiz ijodida ham ko'rishimiz mumkin. Ba'zi she'rlarda an'anaviylik, ayrimlarida ifoda yo'sini va shaklida novatarlik ko'zga tashlanadi. Mazmun va mavzu esa butkul boshqa masala. Yosh avlod shoirlari murosaga ko'nuvchan emas, ularda isyonkorlik, dadillik, yovqirlik bor. O'zlarining jo'shqin va haroratli she'rlari bilan ancha muhokamalarga sabab bo'layitgan shunday shoirlardan biri Najmiddin Ermatovdir. Ijodkor allaqachon ko'pchilikning nazariga tushib ulgurgan. Bunga "Izlam" turkumida "Turon sog'inchi" to'plamining nashr qilinishi ham misol bo'la oladi. Najmiddin Ermatov ijodi bilan chuqurroq tanishish maqsadida ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarini kuzatib chiqdim. Shoirning Telegram sahifasiga yozib qo'yilgan shunday so'zlarga ko'zim tushdi: "Darding bo'lmasa, dardisarimni kovlama". Bu so'zlar ogohlantirishdek tuyildi menga. Go'yo shoir anglolmasang o'zingni qiynama, yohud tishing o'tmasa tosh chaynama deyotganday. Ammo Qozoqboy Yo'ldoshev aytganlaridek: "Tushinish baxt, tushinish ikki xissa baxt". Shoir ijodi bilan tanishar ekansiz undan Cho'lpon she'riyatining isi kelgandek bo'ladi. O'sha shijoat, o'sha da'vat, o'sha xalq uchun yonib-kuyish. Unga xalqonalik xos, unda erkka tashnalik bor, jasorat bor. Najmiddin Ermatov dilidagi og'riqni tiliga ro'yi rost ko'chiradi, ortiqcha qog'ozlarga o'ramaydi. U o'zini erkinlik ichida bandi qilingan insondek his qiladi va buni yashirmaydi ham.

Bu xalqning buguni xurram», – dedi shoh,

Haqsiz deb alqadi xalqning shoiri.
Ne uchun xurramlik tuymayman unda,
Mening ham kechmishim xalqqa doirmi?

Shoir nega erkin yurtida o'zini erkin his qila olmayotganidan hayratga tushadi. Mustaqil bo'lsakda amalda hammasi eski hammon-eski tosligicha qolganidan kuyinadi. She'rning so'ngida shunday xulosa beradi:

Yoki bu millatning hurligi yolg'on,
Yoki she'rlarimning bari safsata...

Najmiddin Ermatov ijodini tadqiq qilish jarayonida uning folklor va klassik adabiyotdan yaxshigina xabardor ekanligiga guvoh bo'lamiz. "Chilvir cho'lning yo'lida G'irotdan iz qolgandir", "Yo el uchun alp tuqqan, Faqat mozormi, jo'ra?", "Mashrab osilgan dorning, Og'ochi butun hamon". Bu kabi misollarni shoir ijodida ko'plab uchratish mumkin. Ehtimol, she'rlarning bu qadar ko'ngilga yaqinligini ta'minlagan narsa ham aynan o'z xalqi tarixini, dardini bilgani, his qilganidir. Najmiddin Ermatov she'riyatini "Urto'qmoq"qa o'xshatish mumkin. Haqiqatdan ko'z yumilgan yoki e'tibor chalg'igan paytda boshingizga to'qmoq bilan bir uradi-da, barchasini ko'zguga solib qarshingizga qo'yadi, ayovsiz fosh etadi. Ammo uning she'rlari faqat aybni yuzga solishdan iborat emas, unda umid bor, hurlikka, millatni, xalqni birlashishga undovchi da'vat bor.

Shukrki, hozircha umid bor,
Bir hovuch uyg'oq bor, bor hali imkon.
Bir yorug' qon bordir oqarga,
Aytarga so'z bordir begumon.
Bir yovqur ruh bordir shuurda,
Vatan bor – arzirli bersa jon.

Najmiddin Ermatovning ijtimoiy mavzudagi, sof insoniy tuyg'ular ifodalangan she'rlari ham tahsinga loyiq.

Qor misoli kaftingga qo'ndim,
Kuyib ketdi kafting taftimdan.
Tisarilding, axir bilmasding
Qorning cho'g'dek yonishin, erkam.

She'rda hayotga bir xil, avvaldan shakillanib kelgan qoliplar bilan emas, yangicha nigoh bilan butunlay boshqa tomondan nazar solish mumkinligiga ishongan va buni yoriga ham anglatishga uringan lirik qahramon tasviri berilgan. Qahramonning tuyg'ulari ham o'ylari ham o'zgacha. Ammo o'zgacha insonlar doim ham tushunilavermagan, nihoyada esa bu ish u qadar oson emasligi ayon bo'ladi.

Ranjimayman, dunyoning sovuq
Qorlariga ko'nikkan qizdan.[1]

Shoirdagi jo'shqinlik, samimiylilik, she'rlarida qanotli so'zlardan, iboralardan unimli foydalana olish, fikrlarni tizimli yetkazib berish, ifodaning jonliligi shubhasiz uning iste'dodi va mahoratidan darak. Ammo shu bilan birga ayrim o'rinlarda biroz zo'rakilik ko'zga tashlangandek bo'ladi. Obrazli ifodalarning haddan oshiq qo'llanishi o'quvchini biroz charchatadi va jumladagi asl ma'nodan chalg'itadi. Ayrim so'zlarning atayin shaklan o'zgartirib qo'llanishi (ko'kragim emas ko'kayim tarzida) ham biroz g'alizday, nazarimda. Ehtimol, bu ijodkorning ijodiy yaratig'idir. Ammo har narsa o'rnida qo'llansa go'zal, har safar aynan

takrorlayverish so'zning yangiligiga putur yetkazadi, oxorini to'kadi. Bu fikr faqat so'zlarga emas, jumalarga, obrazlarga ham tegishli. Masalan "bo'zlayotgan bo'zto'rg'ay", "kuygan ko'kay" kabi qo'shma so'zlar shoirning bir nechta she'rlarida aynan takrorlangan. Ammo bular kamchiliklar emas yosh va umidli shoirimizning ijod yo'lidagi izlanishlari, tajribalari.

Aytayotgan so'zimiz, yurish turishimiz, amolimizga qarab insonlarga baho beramiz. Qilgan har bir tutumimiz aslida kim ekanligimizni, ichimizdagi insonning ma'naviy qiyofasini qaysidir ma'noda aks ettirib turadi. Fitratidagi o'ychanlik, kuyinchaklik, vazminlik ijodida ham yaqqol ko'zga tashlanib turadigan ijodkor- Suhrob Ziyo ham voqealar rivoji tobora jadallashib borayotgan bugungi tig'iz zamonimizda ziyo taratishga urinayotgan yosh ijodkorlardan biridir. Shu kunga qadar bir necha toplamlari nashr qilinib, allaqachon ko'pchilikning ko'nglidan joy olishga ulgirdi.. Suhbatlaridan birida shoir Izlam turkumida nashr etilgan "Daryo" to'plamiga qizining ismini nom sifatida tanlaganini aytib o'tgandi. Lekin bu nom Suhrob Ziyoning butun ijodini shu birgina so'zda jamlay olgan noyob topilma desak ham bo'ladi. Ijodkor she'rlarida aks etgan o'ylar, kechinmalar fikr va g'oyalar bam daryo kabi keng, sokin ba'zan toshqinli va dovulli. She'rlar o'quvchini o'yga toldiradi, o'zini taftish qilishga undaydi. Boshqa tengdosh ijodkorlarga qaraganda tili ravon, kitobxon o'qishga va uqishga qiynalmaydi.

Atay qo'ng'iroqqa bermayman javob,

Atayin kechikib boraman ishga.

Urinaman atay tartib buzaroq

Dunyoni o'zimga ko'niktirishga.

-deya ko'pchilik kitobxonlarni o'ziga o'rgatib qo'ya olgan ijodkor she'rlari ifodaning ravonligi, satrlarning quymaligi sabab o'quvchi ko'ngliga tez o'tirishadi. Bundan tashqari shoir ijodida mavzular ham rang-barang. Ijtimoiy mavzularda ham xalq dardi-yu o'y-hayollarini ham, umumjahon mavzularda ham dadil qalam tebrata oladi. E'tiborli jihati Suhrob Ziyo inson qalbidagi eng ingicha sezmlarni ham te'ran anglaydi va boshqalarga ham anglata biladi.

Faqat jim kezamiz, so'z aytma zinhor,

Yorilib ketmasin yuraklarimiz.

Ikki oshiqning visol onidagi ruhiy holatini bundanda tabiiy ifidalab bo'lmasa kerak. Axir, chin sevgi so'zlarga ehtiyoj sezmaydi, bunda ko'ngillar tillashadi. Bordiyu biron so'z aytilsa hayajonning zo'ridan yuraklar yorilib ketishi mumkin.

Bevaqt gullab qo'ydi, qancha daraxtlar,

Gullab qo'ygan kabi, maxfiy bir sirni.

Shoir o'xshatishlarni ham topib qo'llaydi. "Sochilgan sochlarday sochilgan sirlar"ni o'qib qancha hayratlangan, ifoda go'zalligidan zavqlangan bo'lsak, yuqoridagi satrlarda daraxtlarning go'yo sirlarni gullab qo'yganday bevat gullashi hayratimizga hayrat qo'shadi. Biroq shuni ham aytib o'tish kerakki, ayrim o'rinlarda ijodkor ma'nodan qochib ketganday tuyiladi. Adabiyotshunoslikda struktural tahlil metodi bor. Bu jihatdan qarasak Suhrob Ziyoning ba'zi she'rlari shu metodda tahlil qilinsa yana ham ochiladi. Xususan, quyidagi misralarda shoirning nima demoqchiligi biroz tushuniksiz tuyilishi mumkin.

Qasamday qadaldi bo'g'zimga hilol,

Endi sensizlikka qadam bo'lmaydi

Misra o'quvchida qator savollarni paydo qiladi. Hilol nega bo'g'izga qadaladi? Ehtimol, yangi chiqqan oy, hilol hanjarga o'xshatilgandir. Bordiyu shunday bo'lsa, nega aynan qasamday qadaldi? Buni ustidan chiqilmagan qasam bo'g'izga qadalgan hanjardek kishini bezovta qilishi

deb tushinish kerak. Shunda keyingi misra oydinlashadi. Demak oshiq qasami ustidan chiqa olmadi va endi yor tomon qadam bosa olmaydi, zotan bunga haqqi yo'q. Keyingi ikki misrada esa buni lirik qahramonning o'zi ham tan oladi.

Haddimdan oshibroq sevdim, ehtimol,
Oshiqlar hech qachon odam bo'lmaydi.[2]

Xulosa qilib aytganda, Najmiddin Ermatov ham Suhrob Ziyo ham she'riyat olamiga o'z ovozi, tuyg'ulari va tutumlari bilan dadil kirib kelgan ijodkorlar. Hayqiriqlarga, his tuyg'ularga to'la she'rlari bilan adabiyot ihlosmandlari e'tiborini o'zlariga qarata olishdi. Yosh shoirlarimizga keyingi ijod yo'llarida zafarlar tilaymiz. Istagimiz qalami ham so'zi kabi o'tkir bu ijodkorlarning qalami sinmasin!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ermatov N. Turon sog'inchi. — Toshkent: Akademnashr NMM, 2024.
2. Suhrob Z. Daryo. — Toshkent: Akademnashr NMM, 2024.
3. D.Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. –Toshkent: Akademnashr, 2022.

